

BADIIY TARJIMANING LEKSIK MUAMMOLAR TIPOLOGIYASI

Sotiboldiyeva Gulcharos Murat qizi

Uzbekistan State World Languages University

Teacher of translation theory department

gulcharos.muratovna@gmail.com

+998935115752

ANNOTATSIYA

Badiiy tarjima – bir tilning estetik va ma'naviy boyligini boshqa tilga o'tkazishda o'ta murakkab jarayondir. Ushbu maqolada badiiy tarjima jarayonida uchraydigan leksik muammolar va ularning tipologiyasi chuqur tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor leksik birliklarning semantik nozikliklarini to'g'ri yetkazish, madaniy o'ziga xosliklarni aks ettirish va sinonimlarni tanlashdagi qiyinchiliklarga qaratiladi. Tarjima jarayonida madaniy unsurlar, milliy o'ziga xoslik, shuningdek, frazeologizmlar va metaforalarning tarjimasi o'zgacha murakkablik kasb etadi. Maqolada bu muammolarni hal qilishda tarjimonning lingvistik va madaniy bilimlari, ijodiy yondashuvi va mahorati hal qiluvchi rol o'ynashi ta'kidlangan. Badiiy tarjima faqat so'zma-so'z tarjima qilish emas, balki asar ruhini, muallif uslubini va ma'no ko'lamini yetkazishni talab qiladi.

Maqola muallifi, badiiy tarjimada uchraydigan leksik muammolarni turkumlarga ajratib, ularning tahlilini beradi va ularni hal etish bo'yicha nazariy hamda amaliy tavsiyalarni ilgari suradi. Shuningdek, milliy va xalqaro miqyosdagi tarjima amaliyotida kuzatilgan muammolar hamda ularga berilgan echimlar ko'rib chiqiladi. Ushbu maqola badiiy tarjimaning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, shuningdek, tarjimonlar uchun foydali uslubiy yo'nalishlarni ishlab chiqish uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Badiiy tarjima, leksik muammolar, tarjima tipologiyasi, madaniy o'ziga xoslik, frazeologizmlar, metaforalar, tarjimon mahorati, estetik boylik, semantik noziklik, ijodiy yondashuv.

THE TYPOLOGY OF LEXICAL ISSUES IN LITERARY TRANSLATION

Sotiboldiyeva Gulcharos Murat qizi

O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrası o`qituvchisi

gulcharos.muratovna@gmail.com

+998935115752

ABSTRACT

Literary translation is an extremely complex process of conveying the aesthetic and spiritual richness of one language into another. This article provides an in-depth analysis of the lexical challenges encountered in the process of literary translation and their typology. The focus is on accurately conveying the semantic subtleties of lexical units, reflecting cultural uniqueness, and addressing the difficulties in selecting synonyms. The translation process presents unique complexities in handling cultural elements, national identity, as well as the translation of idioms and metaphors. The article highlights the crucial role of the translator's linguistic and cultural knowledge, creative approach, and skill in resolving these issues. Literary translation is not merely about literal translation but also about conveying the spirit of the work, the author's style, and the breadth of meaning.

The author of the article classifies the lexical challenges in literary translation, analyzes them, and offers theoretical and practical recommendations for their resolution. Additionally, problems observed in national and international translation practices and the solutions provided are discussed. This article serves as a valuable resource for studying the theoretical and practical aspects of literary translation, as well as for developing useful methodological guidelines for translators.

Keywords: Literary translation, lexical challenges, translation typology, cultural uniqueness, idioms, metaphors, translator's skill, aesthetic richness, semantic subtleties, creative approach.

ТИПОЛОГИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

Сотиболдиева Гулчарос Мурат кизи

Узбекский Государственный университет мировых языков

Преподаватель кафедры теории перевода английского языка
gulcharos.muratovna@gmail.com

+998935115752

АННОТАЦИЯ

Художественный перевод — это чрезвычайно сложный процесс передачи эстетического и духовного богатства одного языка на другой. В данной статье подробно анализируются лексические проблемы, возникающие в процессе художественного перевода, и их типология. Основное внимание уделено правильной передаче семантических тонкостей лексических единиц, отражению культурной самобытности и трудностям выбора синонимов. В процессе перевода культурные элементы, национальная специфика, а также перевод фразеологизмов и метафор представляют особую сложность. В статье подчёркивается ключевая роль лингвистических и культурных знаний, творческого подхода и мастерства переводчика в решении этих проблем. Художественный перевод — это не просто буквальный перевод, а передача духа произведения, стиля автора и глубины смысла.

Автор статьи классифицирует лексические проблемы, возникающие в художественном переводе, анализирует их и предлагает теоретические и практические рекомендации для их решения. Кроме того, рассматриваются проблемы, выявленные в национальной и международной практике перевода, и предложенные пути их решения. Эта статья является ценным источником для изучения теоретических и практических аспектов художественного перевода, а также для разработки полезных методических рекомендаций для переводчиков.

Ключевые слова: Художественный перевод, лексические проблемы, типология перевода, культурная самобытность, фразеологизмы, метафоры, мастерство переводчика, эстетическое богатство, семантические тонкости, творческий подход.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida hozirgi kunda badiiy adabiyot tarjimalari va ularning zamonaviy tilshunoslik sohalaridagi tadqiqiga keng e'tibor qaratilmoqda. Chunki bir millat yoki madaniyatga tegishli badiiy adabiyot o'sha millatning madaniyatidagi qirralarni o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham, badiiy adabiyot va undagi durdonalarni tadqiq etish nafaqat o'quvchini estetik didini oshiradi, shu bilan birgalikda o'sha xalq madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlarini to'g'risida ma'lumot beradi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi tarjimada leksik transformatsiyalar va ularning o'zbek tilida berilishi, shuningdek, ularni tarjima qilish usullari yetarlicha o'zbek tilida yoritilmagani. Xolbuki, hozirgi paytda jahon adabiyoti durdonalaridan xabardor bo'lish davr talabidir va ularning amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda ingliz tilidagi materiallarni o'zbek tiliga tarjima qilishga ehtiyoj sezilmoqda.

ASOSIY QISM

Mavzuning yangiligi tarjima mutaxassisligi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga badiiy tarjima jarayonida leksik transformatsiyaga oid nazariy bilimlar naqadar muhimligini ham nazariy, ham amaliy yaxlit holda to'plash va o'zbek tilida bayon qilinishidir.

Mavzuning maqsadi ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimada leksik transformatsiyalarni qo'llanishini tadqiq qilish.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal qilinadi:

-tarjima transformatsiyasi tushunchasining mazmun-mohiyatini tahlil qilish va tasniflash;

-badiiy tarjimaning leksik muammolari tipologiyasi bilan tanishish, tarjimada transformatsiyalardan foydalanish omillarini aniqlash;

-ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimada ekvivalentlik transformatsiyasidan foydalanish masalalarini muhokama qilish;

-badiiy tarjimada aniqlashtirish va umumiyashtirish transformatsiyalarni qo'llash.

Ko'pgina tilshunoslar va tarjima sohasi mutaxassislari o'z asarlarida "tarjima transformatsiyalari" tushunchasiga ta'rif berish masalasi bilan shug'ullanganlar, jumladan, L. S. Barxudarov, T. Savory, V. N. Komissarov, L.K.Latishev, V. S Vinogradov, N. Kojanev, Z. D. Lvovskaya, E. V. Breus, G. Gachechiladze, D. I. Ermolovich, T. A. Kazakov, A. I. Klishin, L. L. Nelyubin, I. Ya. Retsker, A. V. Fedorov, O. A. Firsov, A. D. Shvaytser, G. T. Xuxuniy va boshqalar. Bu mavzuda izlangan har bir olim «tarjima transformatsiyasi» tushunchasini turlicha

izohlagan. Bunga esa bir nechta o'xshash ta'riflar mavjudligi ammo yagona ta'rifning yo'qligi sabab bo'ldi. Bizning yurtimizda ushbu mavzuni Esenboev R., Kamilov N., Karamatov X. S., Komilov N., Salomov G., Suleymanova P. K. kabi tilshunos olimlar o'z ishlarida ilmiy o'rgangan.

Mavzuning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- tadqiqot ishi mashhur jahon adabiyoti na'munalaridan biri va uning o'zbek tiliga tarjimasi tahliliga asoslanadi va shu bilan birga leksik transformatsiyalar, ularning turlari haqida ham talabalarga nazariy bilim beradi;
- tarjimada transformatsiya va uning turlari hamda leksik transformatsiyalar haqida ma'lumot beradi;
- bundan tashqari tilshunoslikdagi shu sohadagi yaratilgan bir nechta asarlar haqida so'z boradi hamda tilshunoslikning transformatsiya sohasini o'rganayotgan yoki ilmiy ish olib borayotgan mutaxassislarga boshlang'ich qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuni yoritishda kontrastiv(chog'ishtirma), transformatsion tahlil usullari, kontekstual tahlil va tavsiflash usullaridan foydalanilgan.

Badiiy uslub-tilning kommunikativ va estetik vazifalari birligi bilan boshqa uslubga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning ko'p ishlatilishi, so'zlarning obrazli, ko'chmametaforik qo'llanishi va shu kabi belgilari bilan ajralib turadi. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo'lgan barcha lug'aviy birliklarning ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo'ladi, chunki ana shunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslubda chegaralangandir.

Mark Tvenning "Shahzoda va gado" asarida ko'plab tarixiy so'zlar va terminlar uchraydi. Bu so'zlar asarning o'ziga xosligini va tarixiy davrni yoritishda muhim rol o'ynaydi. Quyida asarda uchrashi mumkin bo'lgan ba'zi tarixiy so'zlar keltirilgan:

- *Liveri*: Qirollik xizmatkorlari va rasmiylari kiyadigan maxsus kiyim.
- *Zindon (Dungeon)*: O'rta asrda foydalanilgan qamoqxona yoki qo'riqlanadigan joy.
- *Geraldika*: O'rta asrda knyazlik va qirollik oilalarining ramzlari va nishonlari.
- *Uch oyli qonun (Sumptuary Laws)*: U yoki bu toifa odamlar qanday kiyim kiyishi mumkinligini belgilovchi qonunlar.
- *Gersog (Duke)*: Yuqori martabali zodagon.
- *Yigit (Squire)*: Yosh zodagon yoki ritsarning yordamchisi.

Bu so'zlar Mark Tvenning asarida o'rta asr Angliya hayotini va undagi ijtimoiy, siyosiy tuzumni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu so'zlar orqali o'quvchilar o'sha davrning

an'analarini, urf-odatlarini va ijtimoiy tuzilishini yaxshiroq tushunib olishlari mumkin.

Adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlardan, dag'al so'zlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagani holda ularni badiiy uslubda o'rni bilan qo'llash mumkin. Vazifaviy uslubning hech birida til o'zining tuzilish jihatlarini, lug'at tarkibi, ya'ni so'zning ma'no boyligi va rang-barangligini, to'g'ri va ko'chma ma'nolarni badiiy nutq uslubidagichalik namoyish qila olmaydi, grammatik qurilishi, ya'ni gaplarning barcha tiplari bilan ishtirok eta olmaydi. Badiiy adabiyotning barcha janrlarida so'z ishlatish va so'z tanlash imkoniyatlariga bir mezon bilan yondashib bo'lmaydi. Har qaysi adabiy janrning tasvir usuli, so'z tanlash yo'sini shu janrdagi asarning umumiy mavzusiga, janr turiga bog'liq bo'ladi.

Izlanish natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, o'zbek tilida bayon qilinayotgan tarjima jarayonining aspektlari oliy o'quv yurtlari tizimida tarjimonlik mutaxassisligiga tayyorlashning yangicha tizimiga o'tishiga va shu orqali tarjimonlarning yangi avlodini yaratishga amaliy jihatdan yordam beradi. Bunday yaxlit metodik ko'rsatmalarning o'zbek tilida haligacha nashr qilinmaganligi ham ishimizning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Mazkur ishning nazariy ahamiyati transformatsiya orqali qilingan badiiy tarjimalarning bugunga qadar erishgan yutuqlarini o'rganish, ularni umumlashtirish, uning istiqboli haqidagi nazariy qarashlarni ilmiy tahlil etishga qaratilgan.

Jek Londonning "Martin Eden" asaridagi arxaik so'zlar va ularning zamonaviy ekvivalentlarini quyida keltiramiz:

1. Arxaik so'z: *afore*
 - Zamonaviy ekvivalent: before
 - Misol: "He had never felt such a pain afore." → "He had never felt such a pain before."
2. Arxaik so'z: *betwixt*
 - Zamonaviy ekvivalent: between
 - Misol: "Betwixt him and the books, there was a strange connection." → "Between him and the books, there was a strange connection."
3. Arxaik so'z: *hither*
 - Zamonaviy ekvivalent: here
 - Misol: "He came hither in search of knowledge." → "He came here in search of knowledge."
4. Arxaik so'z: *thou*
 - Zamonaviy ekvivalent: you
 - Misol: "Thou art a scholar." → "You are a scholar."
5. Arxaik so'z: *thy*
 - Zamonaviy ekvivalent: your
 - Misol: "Thy words are wise." → "Your words are wise."

6. Arxaik so'z: *ere*
 - Zamonaviy ekvivalent: before
 - Misol: "Ere the dawn, he was already at work." → "Before the dawn, he was already at work."
7. Arxaik so'z: *whilst*
 - Zamonaviy ekvivalent: while
 - Misol: "He read the book whilst she was asleep." → "He read the book while she was asleep."

Bu so'zlar adabiy asarlarning tarixiy va madaniy kontekstini saqlab qolish uchun muhimdir, ammo zamonaviy o'quvchilarga ularni tushunishni osonlashtirish uchun ular zamonaviy ekvivalentlariga aylantirilishi mumkin.

XULOSA

Badiiy matn adabiyotning bir turiga mansub bo'lib, san'at asari hisoblanadi va estetik maqsadda yaratiladi. U insonlarning hayoti, his-tuyg'ulari, fikr va orzularini ifodalash uchun ishlatiladi. Badiiy matnlar ko'pincha adabiy janrlar, masalan, she'r, hikoya, roman, drama kabi shakllarda bo'ladi; estetik zavq berish, o'quvchiga ma'naviy ta'sir ko'rsatish uchun yaratiladi. Ob'ektlar, voqealar va qahramonlar tasviriy vositalar yordamida jonli va rang-barang qilib ifodalanadi. Badiiy matnlar boy leksika, metaforalar, ta'riflar va boshqa uslublar bilan bezatilgan bo'ladi. Bundan tashqari, badiiy matnlar insoniyat madaniyati va adabiyotining muhim qismidir va ular orqali mualliflar o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy holatini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Chomsky, N. *Aspects of the Theory of Syntax*. MIT Press.1965.
2. Eco, U. *Experiences in Translation*. University of Toronto Press.2001.
3. Jakobson, R. On Linguistic Aspects of Translation. In *On Translation* (ed. Reuben Brower). Harvard University Press.1959.
4. Lefevere, A. *Translation, Rewriting, and the Manipulation of Literary Fame*. Routledge.1992.
5. Nida, E. A. *Toward a Science of Translating*. E.J. Brill.1964.
6. Toury, G. *Descriptive Translation Studies and Beyond*. John Benjamins Publishing.1995.
7. Venuti, L. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. Routledge.1995.
8. Xalliyeva G. "Qiyosiy adabiyotshunoslik", Monografiya. Toshkent. 2020.
9. Reformatsky AA *What is the term and terminology?* In sb: "Questions of terminology" .1961.248 p.
10. Satvoldieva, U. D. *Axiological Characteristics Of English, Uzbek And Russian Phraseological Units*. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 2020. 40-45.